SIRDARYO VILOYATI SARDOBA TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

120800, Paxtaobod shaharchasi, Do'stlik ko'chasi,22uy, tel: (67)344-17-77, e-mail: sardoba.t@exat.uz

2024 - yil 17 - aprel 100-9-127-Q/24 Sardoba tuman hokimligi

TUMAN HUDUDIGA YO‘L BELGISINI O‘RNATISH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-aprelda “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprelda “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash, shuningdek “Xavfsiz yo‘l va xavfsiz piyoda” umummilliy dasturini amalga oshirish maqsadida, tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 2023-yil 05-yanvardagi 01/01-001- sonli xatini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 2023-yil 05-yanvardagi 01/01-001-sonli xati inobatga olinsin.

2. “Qo‘rg‘ntepa” mahalla fuqarolar yig‘ini G‘ayratli ko‘chasiga xarakatni tartibga soluvchi 2 dona Ogohlantiruvchi (1.31 Sun’iy yo‘l notekisligi) yo‘l belgisini **o‘rnatishga ruxsat etilsin.**

3. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi rahbari Z.Turdiyevaga, ushbu yo‘l belgisini o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati U.Jo‘rayevga:

tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari J.Qaynarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Mirzayev**